



ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINING INTEGRATSIYASI
ORQALI LUG'AVIY BOYLIKNI OSHIRISHDA KREATIVLIKDAN
FOYDALANISH

Mahmudova Nazokat Qodirali qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

mutaxassisligi

2-kurs magistranti.

Ortiqova Zulfiya Nurmuhimmatovna

Farg'ona davlat universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,

dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishning afzalliklari yoritilgan. Til va adabiyot birini to'ldiruvchi, o'zaro uyg'unlikda mavjud bo'lgan fanlar sifatida o'quvchi tafakkurini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada integratsiyalashgan darslarning metodik asoslari, amaliy yondashuvlar, o'quvchi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi uslublar va zamonaviy ta'lim standartlari bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy muqta nazardan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Integratsiya, kommunikativlik, integrativ yondashuv, adabiyot, lingvistik, fanlararo aloqadorlik, struktura, interaktiv, onlayn platformalar, multimediya, professional rivojlanish.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim sohasiga e'tibor har qachongidan ham ortib bormoqda. Bu esa o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi, chunki zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki o'quvchilarni zamon talablariga mos ravishda tayyorlashga qodir bo'lishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarga fanga oid bilimlarni yetkazish bilan birga, ularning qiziqishlarini uyg'otishi va fanlarning o'zaro bog'liqligini tushuntirish orqali talabalarda fanlarni



bir-biriga bog'lash qobiliyatini shakllantirishi kerak. Shu nuqtai nazardan, fanlararo integratsiya o'rni muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ona tili va adabiyot fanlarini birlashtirish aynan shu jarayonda talabalarning lug'aviy boyligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi ta'lim tizimida o'quv jarayoni faqat bitta fan doirasida emas, balki bir nechta fanlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv o'quvchilarga ko'p qirrali bilim va ko'nikmalarni egallashga imkon yaratadi. Ona tilining asosiy maqsadi □ talabaning fikrini aniq, tushunarli va ravon ifodalashini ta'minlash bo'lsa, adabiyot fanida esa tilning badiiy imkoniyatlari orqali o'quvchida rang-barang fikr, hissiyot va ijodiy tasavvurlarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Ona tili fanining o'rganilishi shuningdek, tilning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini anglashga xizmat qiladi. Til nafaqat fikr va mulohazalarni ifodalash vositasi, balki muloqot jarayonida insonlar o'rtasidagi tushunishni ta'minlovchi asosiy vositadir. So'zlashuv va yozuv faoliyati orqali o'quvchilar fikrlarini shakllantiradi, boshqalar fikrini anglay oladi, va shu bilan jamiyatdagi kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ona tili darslarida lug'at bilan ishlashga alohida e'tibor berish muhimdir. Lug'at ishining asosiy vazifasi □ o'quvchilarning yangi so'zlarni nafaqat eslab qolishi, balki ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri va samarali ishlata olishini ta'minlashdir. Lug'at mashg'ulotlarida so'zning ma'nosi, talaffuzi, imlosi va kontekstda qo'llanilishi e'tiborga olinadi. Shu orqali o'quvchilar nutqda so'z boyligini oshiradi, matnlarni tushunish darajasi ortadi va fikrini to'g'ri, ravon va savodli ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, lug'at ustida ishlash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, matnlarni tahlil qilishga, shuningdek ijodiy yozuv va nutq faoliyatiga tayyorlaydi. Integratsiyalashgan darslar esa o'quvchiga so'z boyligini amaliy ravishda qo'llash imkonini yaratadi va ularning badiiy tafakkurini kengaytiradi. Shu tariqa, ona tili va adabiyot fanlarini birlashtirish orqali o'quvchilarning lug'aviy salohiyati sezilarli darajada oshadi [1].



TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi ona tili va adabiyot fanlaridagi integrativ yondashuvning o'quvchilarning lug'aviy boyligini oshirishga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tilshunoslik nazariyasi, psixolingvistika, lingvometodika, kompetensiya asosida ta'lim yondashuvlari hamda integratsiyalashgan o'qitishning didaktik tamoyillaridan foydalanildi.

Tadqiqot bir necha bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Diagnostik bosqich. Bu bosqichda o'quvchilarning dastlabki lug'aviy boylik darajasi, so'z ma'nolarini farqlash, sinonim-antonym birliklardan foydalanish, matn yaratishda leksik birliklarni qo'llash kabi ko'nikmalari maxsus testlar orqali baholandi. Test savollari ona tili va adabiyot dasturlaridagi lug'aviy birliklar asosida tuzildi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'qib tushunish tajribasi, matnlarni tahlil qilish qobiliyati, badiiy asarlardagi leksik birliklarni idrok etish darajasi aniqlab olindi.

2. Eksperimental-pedagogik ta'sir bosqichi. Bu bosqichda ona tili va adabiyot fanlari integratsiyasiga asoslangan o'quv mashg'ulotlari shakllantirildi va sinov sifatida o'quv jarayoniga joriy etildi. Integrativ darslarda:

- badiiy matnlar asosida lug'aviy birliklarni o'rganish;
- asarlardan olingan obrazli ifodalar va til vositalarini tahlil qilish;
- matn tuzishda stilistik vositalardan foydalanish;
- mavzu doirasida yangi so'zlarni kontekstual o'zlashtirish;
- dramatizatsiya, rolli o'yinlar, munozara kabi ijodiy uslublar orqali faol

lug'atni kengaytirish

kabi metodlar qo'llanildi. Dars jarayonida interfaol metodlar □ □Insert□, □Baliq skleti□, □Konseptual xarita□, □Klaster□, □Aqliy hujum□, □Venn diagrammasi□ kabi usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun integrativ shaklda qo'llandi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ona tili va adabiyot fanlarining integrativ asosda o'qitilishi o'quvchilarning lug'aviy boyligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Integratsiya natijasida o'quvchilar o'rgangan



yangi so'zlarni nafaqat yod oldi, balki ularni amaliy nutq faoliyatida qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantirdi.

1. Lug'aviy boylikning sezilarli oshishi. O'quvchilarning faol lug'at fondi tajri-ba boshiga nisbatan 20□35 foiz ga oshdi. Ayniqsa badiiy matnlardagi sinonimlar, antonimlar, ko'chma ma'noli birliklar, tasviriy vositalarni idrok etish va qo'llash darajasi yuksaldi. Integrativ darslar matn asosida o'rganilgan so'zlarni mustahkamlashga yordam berdi.

2. Matn ustida ishlash ko'nikmasining kuchayishi. Ona tili grammatik qoidalarini adabiyot darslaridagi konkret misollar bilan uyg'unlashtirish natijasida o'quvchilar matnning mazmuniy qatlamlari, kompozitsion tuzilishi, obrazli ifodalar va matnning leksik boyligiga chuqurroq tushuna boshladilar. Yozma ishlar sifatida: mazmunning izchil bayoni, badiiy vositalardan foydalanish, boy so'z tanlash, mantiqiy bog'lanishlarni yaratish va ko'nikmalarining sezilarli ravishda rivojlanganligi aniqlandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lug'at boyligini oshirishda turli xil metod yoki o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: So'z zanjiri o'yinidan foydalansak, unda bolalar so'zning oxirgi harfiga so'z aytadilar. Kitob, bola, alla, adabiyot, televizor, radio, ona va hokazolar. Bunday o'yinlar orqali bolada nafaqat so'z boyligi, balki fikrlash qobiliyati, tezkorligi, aqliligi singari qobiliyatlari ham rivojlanib boradi. Bola badiiy asarlarni qancha ko'p o'qigan sari uning dunyoqarashi boyib boraveradi.

3. Kreativ fikrlash rivojlanishi. Adabiyot fanidagi obrazlar, syujetlar, badiiy tasvir vositalari o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undadi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, yangi jumlar yaratish, voqea va holatlarni qayta tasvirlashda yanada faol bo'ldilar. Integrativ darslarda dramatizatsiya, ro'yxatga olish, munozara va matn yaratish kabi topshiriqlar kreativlikni rivojlantirdi.

4. Og'zaki nutq sifati yaxshilandi. Eksperimental guruh o'quvchilarining og'zaki nutqi aniqlik, ifodalilik va leksik xilma-xillik bilan ajralib tura boshladi. Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayoni ularning til boyligini tabiatiga mos ravishda



kengaytirdi. Nutqdagi pauza, urg'u, intonatsiya, ohang kabi elementlarning to'g'ri qo'llanishi hamda mavzuga mos so'z tanlash sifati ortdi.

5. Adabiy matn orqali so'zlarning semantik maydonini idrok etish kuchaydi. O'quvchilar so'zning faqat lug'aviy ma'nosini emas, balki konnotativ ma'nosi, emotsional bo'yoqdorligi va badiiy vazifasini ham tushuna boshladilar. Bu ona tili nazariy bilimlarining adabiyot bilan bog'langan holda berilishi natijasida yuzaga keldi.

6. Integratsiyaning o'quv motivatsiyasiga ta'siri. Adabiy matnlar, muallif uslubi va obrazli ifodalar o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi. Darslarning xilma-xilligi, interfaol mashg'ulotlar, guruhli ishlar jarayoni o'quvchilarning motivatsiyasini oshirdi. O'quvchilar darsga faol qatnashdi, qo'shimcha adabiyot o'qishga rag'bat paydo bo'ldi.

O'quvchilar o'zbek tilini boy badiiy obrazlar orqali egallashadi. O'qish jarayonida ular lug'atini ma'lum mavzularga oid so'zlar bilan boyitadi. Masalan, axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirin, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi so'zlar ularning lug'atiga qo'shiladi. Shu bilan birga, matnni tahlil qilish jarayonida bolalar ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlar va ba'zi frazeologik birikmalar bilan tanishadi.

Bolalar mustaqil o'qishga odatlanib qolganidan so'ng, ularning lug'at boyligiga kitob, gazeta, jurnal va boshqa matnlar katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik qilish shakllari o'quvchilarning lug'atini boyitish va nutqini rivojlantirishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Maxsus mashqlar orqali grammatika va imloni o'rganish darslari ham so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Shu darslarda o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib kabi tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni bilib oladi. Shuningdek, lug'atni tartibga solish, so'z turkumlarini o'rganish, so'z tarkibi va so'z yasalişini tahlil qilish orqali lug'atga aniqlik kiritiladi. Natijada o'quvchilar o'rgangan so'zlarni nutqlarida qo'llay boshlaydi, bu esa ularning lug'atini faol qiladi.



Lug'at boyligini oshirishda maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar ham samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, kinofilm va teleko'rsatuv matnlari, o'qituvchi nutqlari hamda maktab va maktabdan tashqari muassasalardagi muloqotlar o'quvchilar lug'atini boyitish va rivojlantirish manbalaridir.

Turli lug'atlardan foydalanish esa o'quvchilarga yangi so'zlar va tushunchalarni o'zlashtirishda katta yordam beradi. Masalan, ona tili fanida sinonimlar, antonimlar yoki frazeologik birliklar bilan ishlashda, bola bir so'zning sinonimini yoki antonimini topishga harakat qiladi. Bu jarayon o'quvchining ongida yangi so'zlar va tushunchalar paydo bo'lishiga, lug'at doirasining kengayishiga olib keladi. Shu tarzda, o'quvchilar nafaqat til boyligini oshiradi, balki fikrlash qobiliyatini va nutq madaniyatini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, ona tili va adabiyot fanlarini birgalikda o'qitish o'quvchilarning lug'aviy boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini oshirish hamda adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu integrativ yondashuv ta'lim jarayonida badiiy matn, grammatik bilimlar va ijodiy ishlanmalarni uyg'unlashtirishga imkon beradi. Quyida mazkur jarayonni samarali tashkil etishga doir metodik tavsiyalar kengaytirilgan holda yoritiladi.

1. Integrativ darslarni rejalashtirish. Ona tili va adabiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash maqsadida dars rejalari mazmunan va shaklan integratsiyaga mos ravishda tuzilishi zarur.

Badiiy matnlardan foydalanish:

Dars jarayonida badiiy asarlar yoki ularning fragmentlarini o'qitish o'quvchilarning til sezgirligini oshiradi. Matn yuzasidan berilgan savollar va muhokamalar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, shu bilan birga yangi so'z va iboralarni faol qo'llashga undaydi.

Guruhlar bilan ishlash: Muayyan mavzu yoki adabiy asar asosida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, ularni erkin fikr almashishga yo'naltirish samarali natija beradi. Bu usul o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, lug'at boyligining amaliy qo'llanishini kuchaytiradi.



2. Ijodiy ishlanmalar orqali mustaqil fikrlashni rag'batlantirish. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning tasavvuri, nutqi va ifoda qobiliyatining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Ssenariy yaratish: O'quvchilardan o'qilgan badiiy asar asosida qisqa ssenariy tuzishni so'rash ularning obrazli tafakkurini, til birliklarini qo'llash mahoratini va matn yaratish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Kreativ adabiy kechalar: O'quvchilar o'z ijod namunalarini □ she'r, hikoya yoki monolog tarzidagi chiqishlarini taqdim etishlari mumkin. Bu jarayon sahna nutqi, adabiy tahlil va estetik baholash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

3. Zamonaviy texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish. Bugungi ta'lim jarayoni texnologik vositalarsiz to'liq tasavvur etilmaydi. Interaktiv texnologiyalar ona tili va adabiyot o'qitilishida ham alohida ahamiyatga ega.

Multimedia taqdimotlari: Slaydlar, videoroliklar va rasmlı materiallardan foydalanish adabiy obrazlarni tushunishni yengillashtiradi va o'quvchilarni vizual jihatdan faollashtiradi.

Onlayn platformalar: Virtual munozaralar, forumlar yoki chat-platformalar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etadi. Bu usul o'zaro muloqot, kreativ yondashuv va mustaqil izlanish madaniyatini rivojlantiradi.

4. Badiiy tahlil va grammatika integratsiyasi. Adabiy matnlar asosida grammatik tahlil olib borish ona tili darslarining samaradorligini oshiradi.

Maqola va esse yozish: O'quvchilar o'qigan badiiy asarlar yuzasidan esse yoki ilmiy-populyar maqola yozish orqali o'z fikrlarini izchil bayon qilishga o'rganadi. Bu jarayon yangi so'zlar, iboralar va ilmiy uslub elementlaridan foydalanishni mustahkamlaydi.

Grammatik tahlil: Adabiy matndan olingan grammatik misollar yordamida til birliklarining amaliy qo'llanilishiga doir tushunchalar yanada aniqlashadi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unlashuviga yordam beradi.

5. Tajriba almashish va metodik rivojlanish. Pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi integratsiyalashgan yondashuvni yanada samarali joriy etish imkonini yaratadi.



Seminarlar va malaka oshirish dasturlari: O'qituvchilar uchun tashkil etiladigan mahorat darslari va ilmiy-amaliy seminarlar yangi pedagogik metodikalar bilan tanishishga xizmat qiladi.

Natijani baholash: O'quvchilarning rivojlanish dinamikasini integrativ baholash vositalari □ portfoliolar, diagnostik testlar, og'zaki fikr bildirish jarayonlari orqali aniqlash mumkin. Bu usullar ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot fanlarining integratsiyasi o'quvchilarning lug'aviy zahirasini boyitishda, nutq madaniyatini shakllantirishda va adabiy tafakkurini rivojlantirishda juda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar va metodik yangiliklardan foydalanish bu jarayonni yanada samarali qiladi. Integrativ yondashuv natijasida o'quvchilar til va adabiyotning uzviy bog'liq jarayon ekanini chuqurroq anglaydi va o'z fikrini ravon ifodalashga o'rganadi [5].

XULOSA. Ona tili va adabiyot fanlarini integratsiyalash talabalarning lug'aviy boyligini oshirishda juda samarali vosita hisoblanadi. Bunday integratsiya o'quvchilarga nafaqat yangi so'zlar va iboralarni o'zlashtirish imkonini beradi, balki ularning badiiy fikrlashini rivojlantiradi va kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlaydi. O'qituvchilar integratsiyalashgan yondashuvlar, o'zaro faoliyat mashg'ulotlar, ijodiy topshiriqlar va interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda til va adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirishlari mumkin. Shu tarzda, ona tili va adabiyot fanlari o'rtasida samarali aloqalar o'rnatiladi, bu esa yosh avlodning intellektual, badiiy va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashgan metodika orqali o'quvchilar nafaqat lug'at boyligini kengaytiradi, balki matnni tahlil qilish, ifodali nutq va ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa ularning umumiy ta'lim salohiyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev, M. (2022). Ona tili darslarida lug'at boyligini oshirish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
2. Karimova, S. (2021). Adabiyot darslarida leksik kompetensiyani rivojlantirish. Samarqand: Fan va ta'lim.



3. Tursunov, R. (2020). Integrativ darslar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ilm.
4. Mirzaev, O. (2019). O'quvchilarda lug'aviy boylikni shakllantirishning innovatsion usullari. Toshkent: Pedagogika.
5. G'ulomov, A. (2023). Ona tili va adabiyot fanlarini integratsiyalash orqali nutq madaniyatini rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston.